
“ISTIQBOL” MFYDAGI ICHKI KO‘CHALAR ASFALTLASHTIRILDI

□ Aholi turmush farovonligini oshirish masalasiga strategik yo‘nalish sifatida e‘tibor qaratilib, so‘nggi yillarda izchil islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda.

✿ Ayniqsa, Davlatimiz rahbarining “2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 408-sonli Qarori mahallalar infratuzilmasini yaxshilanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Qarorga ko‘ra, ko‘plab mahallalarda elektr, suv ta‘minoti yaxshilanib, ichki yo‘llar asfalt qilinmoqda. Ushbu sa‘y-harakatlar natijasida aholiga qulayliklar yaratib berilmoqda.

???? Rishton tumanida ham ichki yo‘llarni ta‘mirlash maqsadida asfaltlash ishlari jadal sur‘atlarda davom etmoqda. 2-sektor hududidagi “Istiqbol” MFYda ham bunyodkorlik ishlari bajarilmoqda.

???? Ushbu mahallaning 500 metrlik ichki yo‘llarida asfaltlash ishlari olib borildi. Yoz va qish chillasida aynan yo‘llarda duch kelinadigan qiyinchiliklarga barham berilganidan mahalla ahli juda xursand bo‘lishdi.

2023-03-27 06:03:05